

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING  
QARORI**

**RESPUBLIKA IXTISOSLASHTIRILGAN ILMIY-AMALIY TIBBIYOT MARKAZINING  
NAMUNAVIY USTAVINI TASDIQLASH TO'G'RISIDA**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi aholisiga 2017 — 2021-yillarda ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatishni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 20-iyundagi PQ-3071-son **qarorini** bajarish yuzasidan, respublikaning ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari faoliyati tashkil etilishini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazining Namunaviy ustavi **ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

2. Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlariga Vazirlar Mahkamasining "Sog'lijni saqlash tizimida eksperimentni tugallash va islohotlarni chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2004-yil 8-iyundagi 264-son **qarorida** nazarda tutilgan tartibning quyidagi qismlari tatbiq etilsin:

tashxis qo'yish va davolash sifati standartlariga rioya qilgan holda aholiga pulli asosda yuqori malakali ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatish;

imtiyozli toifaga kiruvchi bemorlarga order berish, ularni shifoxonaga joylashtirish va O'zbekiston Respublikasi Davlat budgeti mablag'lari hisobiga davolash qiymatini to'lash;

shoshilinch tibbiy yordamga muhtoj bemorlarni shifoxonaga joylashtirish;

markazlar faoliyati daromadlarini shakllantirishning asosiy manbalari va ular faoliyatini moliyalashtirish tartibi.

3. O'zbekiston Respublikasi Sog'lijni saqlash vazirligi bir oy muddatda:

Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazi filialining Namunaviy ustavini tasdiqlasin;

ushbu qaror bilan tasdiqlangan **Namunaviy ustavga** muvofiq ishlab chiqilgan respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlarining yangilangan ustavlarini tasdiqlasin hamda vakolatli organlarda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazsin;

vazirlik tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarni ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi sog'lijni saqlash vaziri A.K. Shadmanov zimmasiga hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Sog'lijni saqlash, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, jismoniy tarbiya va sport masalalari axborot-tahlil departamentiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV**

Toshkent sh.,  
2017-yil 14-oktabr,  
826-son

Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 14-oktabrdagi 826-son **qaroriga**  
**ILOVA**

**Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazining**

**NAMUNAVIY USTAVI**

**1-bob. Umumiq qoidalar**

1. Ushbu Namunaviy ustav Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazining (keyingi o'rinnlarda Markaz deb ataladi) faoliyatini tashkil etish va moliyalashtirish tartibini belgilaydi.

2. Markaz O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi aholisiga 2017 — 2021-yillarda ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatishni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 20-iyundagi PQ-3071-son qarori asosida respublika davolash-profilaktika muassasasi negizida o'z faoliyati yo'nalishi bo'yicha davolash-profilaktika va ilmiy-uslubiy faoliyat olib boruvchi hamda aholiga yuqori malakali ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatuvchi mustaqil davlat tibbiyot tashkiloti sifatida tashkil etiladi.

3. Markaz davlat muassasasi yoxud davlat korxonasi shaklida tashkil etiladi, yuridik shaxs hisoblanadi, o'z mustaqil balansiga ega, belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi hududidagi banklarda hisob-kitob raqamlari va valyuta hisob raqamlarini, shaxsiy g'azna hisob raqamlarini ochadi, Markazning to'liq nomi yozilgan muhrga, shtamplarga va blankalarga ega.

4. Markaz yuqori malakali ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatadi, shuningdek mutaxassislik turlari bo'yicha tibbiyot kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha klinik hamda o'quv bazasi hisoblanadi.

5. Markaz o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi **Konstitutsiyasi** va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis palatalari qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Sog'lijni saqlash vazirligi buyruqlariga, ushbu Namunaviy ustavga va boshqa qonun hujjatlariga amal qildi.

6. Markaz O'zbekiston Respublikasi Sog'lijni saqlash vazirligiga bo'ysunadi.

## **2-bob. Markazning asosiy maqsadlari, vazifalari va funksiyalari**

7. Quyidagilar Markazni tashkil etish va uning faoliyati maqsadlari hisoblanadi:

yuqori malakali va yuqori sifatli hamda hozirgi zamon xalqaro talablariga mos keladigan ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatishga mo'ljallangan yuqori texnologik moddiy va ilmiy bazani, shuningdek ushbu yo'nalishdagi matabni shakllantirish;

o'z ixtisosligi bo'yicha kasalliklarga tashxis qo'yish, ularni davolash va kasalliklarning oldini olishda aholining yuqori malakali ixtisoslashtirilgan tibbiy yordamga bo'lgan talabini qondirish.

8. Quyidagilar Markazning asosiy vazifalari hisoblanadi:

a) quyidagi aholiga o'z ixtisosligi bo'yicha yuqori malakali ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatish:

ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlari asosida aniqlanadigan imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslarga bepul asosda;

O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga (bundan ushbu kichik bandning **ikkinci xatboshida** ko'rsatilgan shaxslar mustasno), shuningdek chet ellik fuqarolarga va fuqaroligi bo'lman shaxslarga pulli asosda;

b) mavjud tibbiyot texnikalari parkining doimiy ravishda yangilab borilishini va modernizatsiya qilinishini ta'minlash, Markazni o'z ixtisosligi bo'yicha hozirgi zamon xalqaro talablariga mos keladigan yuqori malakali ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatish imkonini beradigan zamonaviy tibbiyot asbob-uskunalarini bilan jihozlash;

v) Markaz faoliyatini ta'minlash uchun moliyaviy va moddiy-texnik resurslarni jalg qilish bo'yicha menejment hamda marketing ishlarini tashkil etish;

g) Markaz tibbiyot xodimlarining kasbiy darajasini, shu jumladan mutaxassislarining xorijiy yetakchi tibbiyot ta'limi muassasalarida va klinikalarida o'z ixtisosligi bo'yicha kasalliklarga tashxis qo'yish va ularni davolashning zamonaviy usullari bo'yicha stajirovkalarini tashkil etish hisobiga doimiy ravishda oshirib borish va takomillashtirish;

d) o'z ixtisosligi bo'yicha kasalliklarning oldini olish, ularga tashxis qo'yish va kasalliklarni davolash bo'yicha o'z ilg'or usullarini va texnologiyalarini ishlab chiqishga hamda tibbiy amaliyotga joriy etishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borish;

e) o'z ixtisosligi bo'yicha kasalliklarni davolash va ularga tashxis qo'yishning patentlangan o'z usullari va texnologiyalarini doimiy ravishda takomillashtirib borish hamda ularning xalqaro miqyosda e'tirof etilishiga erishish;

j) o‘z ixtisosligi bo‘yicha respublika maqsadli dasturlarini ishlab chiqishda va amalga oshirishda faol ishtirok etish;

z) o‘z ixtisosligi bo‘yicha xorijiy yetakchi tibbiyot muassasalari bilan xalqaro hamkorlikni kengaytirish va mustahkamlash, to‘plangan tajriba, axborotlar, shuningdek mutaxassislar keng almashinuvini ta’minlash;

i) hududiy ixtisoslashtirilgan tibbiyot tashkilotlariga tashkiliy-uslubiy rahbarlik qilish, ularning amaliyotiga tibbiy yordamning zamonaviy usullari va texnologiyalarini joriy etish, mintaqalarda zarur profilaktik ishlar o‘tkazishda ko‘maklashish, sayyor konsultatsiyalar, mahorat darslarini muntazam ravishda o‘tkazib borish.

9. Markaz o‘ziga yuklangan vazifalarni bajarish uchun quyidagi funksiyalarni bajaradi:

o‘z ixtisosligi bo‘yicha hozirgi zamon xalqaro talablari darajasida kasalliklarga tashxis qo‘yish, ularni davolash va oldini olishning eng samarali, murakkab va yuqori texnologik usullariga bo‘lgan respublika aholisining ehtiyojini qondiradi;

o‘z ixtisosligi bo‘yicha keng tarqalgan kasalliklarga tashxis qo‘yish, ularni davolash va oldini olishning ilg‘or samarali usullari hamda texnologiyalarini ishlab chiqadi va joriy etadi;

Markazning filiallariga, shuningdek respublika mintaqalarida o‘z ixtisosligi bo‘yicha maslahat-diagnostika tibbiy yordamini ko‘rsatuvchi boshqa shu yo‘nalishdagi muassasalarga (bo‘linmalarga) tashkiliy-uslubiy va ilmiy-amaliy yordam ko‘rsatadi;

mintaqalarga borgan holda yuqori malakali ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko‘rsatadi;

o‘z ixtisosligi bo‘yicha o‘zining yuqori malakali mutaxassislar mifikidan rivojlantiradi va rivojlantiradi;

Markaz ixtisosligi bo‘yicha tibbiyot sohasidagi ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha takliflarni ko‘rib chiqish uchun O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligiga kiritadi;

dori vositalarini, tibbiyot buyumlarini, shuningdek o‘z ixtisosligi bo‘yicha tashxis qo‘yish va davolash usullarini klinik sinovdan o‘tkazadi;

xorijagi tibbiyot hamjamiyatiga o‘zining ilmiy va texnologik yutuqlarini taqdim etadi;

o‘z ixtisosligi bo‘yicha o‘zining ilmiy, o‘quv-uslubiy va axborot-ma’lumotnomalarini chop etadi;

tibbiyot kadrlarini, shu jumladan klinik ordinaturada, bazaviy doktoranturada, doktoranturada, katta ilmiy xodim-izlanuvchilar institutida tayyorlaydi, qayta tayyorlaydi va ularning malakasini oshiradi;

Markazning tibbiyot kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, chet mamlakatlarning shu yo‘nalishdagi tibbiyot muassasalari ishtirokida qo‘shma ilmiy-amaliy tadqiqotlar o‘tkazish uchun yuqori malakali chet ellik mutaxassislarini jalb qiladi;

amaliy ko‘nikmalarini mustahkamlagan holda nazariy bilimlarni o‘zlashtirish asosida tibbiyot ta’lim muassasalarida shu yo‘nalishdagi mutaxassisliklar bo‘yicha ta’lim sifatini oshirishga faol ko‘maklashadi.

### **3-bob. Markazning huquqlari va majburiyatlar**

10. Markaz o‘ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

qonun hujjalarda belgilangan doirada o‘ziga berilgan davlat mulkidan foydalanish va uni tasarruf etish;

rivojlantirishga doir biznes-rejalarni, xarajatlar smetalarini mustaqil shakllantirish, ularning hajmlarini va shakllantirish manbalarini, shuningdek xarajatlar yo‘nalishlarini belgilash;

qonun hujjalarda belgilangan tartibda asosiy vositalarni ijara qilish yoki ijara qilish, grantlarni va boshqa moliyaviy yordamni jalb qilish;

qonun hujjalarda belgilangan tartibda tibbiy va boshqa xizmatlarni ko‘rsatishdan tushgan daromadlar doirasida Markaz xodimlarining mehnatiga haq to‘lash va ularni moddiy rag‘batlantirish miqdorlarini belgilash;

mayjud moliyaviy resurslar doirasida asbob-uskunalar, dori vositalari va Markaz faoliyatini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan boshqa moddiy-texnik vositalar xaridini amalga oshirish;

o‘z ixtisosligi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Davlat budgetidan grantlar olish uchun tanlovlarda ishtirok etish;

o‘z faoliyatini amalga oshirish jarayonida yaratilgan intellektual mulk obyektlariga doir mualliflik huquqlarini olish va ulardan foydalanish;

chet ellik yuridik shaxslar bilan ilmiy va ilmiy-texnik hamkorlik qilish, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga va xalqaro shartnomalariga muvofiq tashqi iqtisodiy faoliyat olib borish;

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi bilan kelishuvga ko‘ra respublika mintaqalarida filiallar tashkil etish.

Markaz qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

11. Markaz O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hamda Xususiy lashtirilgan korxonalarga ko‘maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi bilan kelishuvga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadigan tariflarni shakllantirish tartibiga muvofiq tashxis qo‘yish va davolash sifati bo‘yicha tasdiqlangan standartlarga ko‘ra ko‘rsatiladigan barcha turdag'i tibbiy xizmatlar narxlarini mustaqil ravishda tasdiqlaydi.

12. Markaz quyidagilarga majbur:

yuqori malakali ixtisoslashtirilgan tibbiy yordamga muhtoj bo‘lgan kasallarga tashxis qo‘yish va ularni davolash sifati hamda standartlarining hozirgi zamon xalqaro talablari darajasida saqlanishini va rivojlantirilishini ta‘minlash;

o‘z ixtisosligi bo‘yicha quyidagilarga yuqori malakali ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko‘rsatish:

ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlari asosida aniqlanadigan imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslarga bepul asosda;

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolariga (bundan ushbu bandning [to‘rtinchi xatboshida](#) ko‘rsatilgan shaxslar mustasno), shuningdek chet ellik fuqarolarga va fuqaroligi bo‘limgan shaxslarga pulli asosda;

Markazning filiallariga, shuningdek Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi, viloyatlardagi va Toshkent shahridagi mintaqaviy bo‘linmalariga maslahat, uslubiy va texnik yordam ko‘rsatish;

o‘z ixtisosligi bo‘yicha oldini olish, tashxis qo‘yish va davolashning yangi texnologiyalarini yaratish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarning yuksak darajada o‘tkazilishini ta‘minlash;

Markaz tibbiyot xodimlarining kasbiy darajasini, shu jumladan mutaxassislarning xorijiy yetakchi tibbiyot ta‘lim muassasalarida va klinikalarida kasalliklarga o‘z ixtisosligi bo‘yicha tashxis qo‘yish va ularni davolashning zamonaviy usullari bo‘yicha stajirovkalarini tashkil etish hisobiga doimiy ravishda oshirib borish va takomillashtirish;

Markaz xodimlariga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan mehnatni tashkil etish sharoitlarini yaratish va mehnatiga haq to‘lash, xavfsizlik texnikasi taqdim etish, ularni ijtimoiy jihatdan ta‘minlash va maqsadli ijtimoiy himoya qilish;

Markazning moddiy-texnik bazasini o‘z mablag‘lari va jalb etiladigan mablag‘lar hisobidan rivojlantirish hamda zamonaviy tibbiyot texnikasi va texnologiyalari bilan mustahkamlash;

mol-mulkdan aniq maqsadda foydalanish, uning butligini ta‘minlash;

qonun hujjatlariga muvofiq buxgalteriya va statistika hisobini hamda hisobotini yuritish.

Markazda qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

#### **4-bob. Markazning mol-mulki**

13. Asosiy fondlar, shuningdek boshqa moddiy boyliklar va moliyaviy resurslar Markazning mol-mulkini tashkil etadi.

14. Markaz doimiy foydalanish huquqlari asosida yer uchastkasiga egalik qiladi, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o‘z faoliyatining maqsadlariga, mulkdorning topshiriqlariga va mol-mulkning maqsadiga muvofiq o‘ziga biriktirilgan mol-mulkka egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi, bunda budget mablag‘lari va budgetdan tashqari mablag‘lardan samarali foydalanishni ta‘minlaydi.

15. Markaz qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vaqtinchalik foydalilmayotgan binolarni shartnoma asosida ijara berish, tushgan mablag‘larni Markazni moddiy-texnik rivojlantirish uchun

ishlatish, shuningdek asbob-uskunalar va mol-mulkni qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda balansdan chiqarish huquqiga ega.

### **5-bob. Markaz tuzilmasi va Markazni boshqarish**

16. Markaz kengashi Markazning yuqori boshqaruv organi hisoblanadi.

Markaz kengashi 7 kishidan iborat bo‘lib, Markaz direktoridan, Markazning yetakchi tibbiyot va ilmiy xodimlaridan tashkil topadi. Markaz kengashi faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining vakolatli vakillari ishtirok etadilar.

Markaz kengashi to‘g‘risidagi nizom va uning shaxsiy tarkibi Markaz mehnat jamoasi umumiy yig‘ilishining qarori bilan tasdiqlanadi.

Markaz direktori ayni bir vaqtida Markaz kengashi raisi hisoblanadi.

17. Markaz kengashining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

Markazning moliyaviy-xo‘jalik va tibbiy faoliyatini boshqarish, shuningdek Markaz faoliyatining samaradorligini oshirishga qaratilgan tavsiyalarni ishlab chiqish;

rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish, Markaz investitsiya va ilmiy-texnik siyosatining asosiy yo‘nalishlarini belgilash;

yillik biznes-rejalarni va moliyaviy hisobotlarni tasdiqlash;

aholiga pulli asosda ko‘rsatiladigan tibbiy yordam turlari narxlarini belgilangan tartibda tasdiqlash;

Markazdagi, shuningdek uning filiallari va vakolatxonalaridagi munosabatlarni tartibga soluvchi normativ hujjatlarni tasdiqlash.

18. Markaz tuzilmasi Markaz konsultativ poliklinikasining belgilangan bemor o‘rinlari fondi va kontingentlarni qabul qilish quvvati doirasida Markaz kengashi tomonidan ushbu Namunaviy ustavning [1-ilovasiga](#) muvofiq belgilanadi va O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

19. Markazning joriy faoliyatiga rahbarlikni O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vaziri tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan direktor amalga oshiradi.

20. Markaz direktori:

Markaz nomidan o‘z faoliyatini olib boradi, Markazning moliya-xo‘jalik faoliyatiga rahbarlik qiladi, Markaz nomidan shartnomalar tuzadi, Markaz faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa masalalarni hal qiladi;

Markaz va uning filiallari xodimlari ishlarini o‘z vakolatlari doirasida tashkil etadi va boshqaradi, Markaz va uning filiallari xodimlari tomonidan bajarilishi shart bo‘lgan buyruqlar chiqaradi, Markaz xodimlarini qonun hujjatlariga muvofiq ishga qabul qiladi va ishdan bo‘shatadi;

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vaziriga filial direktori (rahbari) nomzodini lavozimga tayinlash va lavozimidan ozod etish uchun taqdim etadi;

Markaz faoliyati uchun javob beradi.

21. Markaz direktori o‘rinbosarlari O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vaziri tomonidan Markaz direktorining taqdimnomasiga binoan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

22. Markazda uning yetuk ilmiy xodimlaridan va mutaxassislaridan iborat Ilmiy kengash tashkil etiladi.

23. Markazning Ilmiy kengashi to‘g‘risidagi nizom va uning shaxsiy tarkibi Markaz direktori tomonidan tasdiqlanadi.

24. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi Markazning aholiga yuqori malakali ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha faoliyatini nazorat qiladi.

### **6-bob. Markaz faoliyatini moliyalashtirish**

25. Markaz faoliyati:

O‘zbekiston Respublikasining Davlat budgeti mablag‘lari;

Markazning o‘z daromadlari;

grantlar va xayriya yordami;

qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladi.

26. Markazning o‘z daromadlari quyidagilar hisobiga shakllantiriladi:

aholiga pulli tibbiy xizmatlar ko‘rsatish;

Markazning ilmiy va o‘quv bazasida boshqa tibbiyot muassasalarining shu yo‘nalishdagi mutaxassislarini tayyorlash;

ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish;

qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

27. O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari quyidagi maqsadlarga ajratiladi:

ushbu Namunaviy ustavning **2-ilovasiga** muvofiq poliklinikaning mavjud bemor o‘rinlari fondi va kontingentlarni qabul qilish quvvatining foiz nisbatida imtiyozli toifaga kiruvchi bemorlarga bepul asosda, shu jumladan shoshilinch tartibda yuqori malakali ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha Markaz tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlarga haq to‘lash;

aholiga imtiyozli tariflar bo‘yicha ayrim turdagи yuqori texnologik (qimmat turadigan) tibbiy xizmatlar ko‘rsatish bilan bog‘liq xizmatlarga haq to‘lash. Ularning ro‘yxati va to‘lanadigan haq foizi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda aniqlanadi. Aholiga imtiyozli tariflar bo‘yicha ko‘rsatiladigan ayrim turdagи texnologik (qimmat turadigan) tibbiy xizmatlar ro‘yxati va to‘lanadigan haq foizi zaruratga qarab, biroq uch yilda kamida bir marta qayta ko‘rib chiqiladi;

Markazni sog‘liqni saqlashni rivojlantirishga doir davlat dasturlari va O‘zbekiston Respublikasining har yillik investitsiya dasturlari doirasida zamonaviy tibbiyot asbob-uskunalarini va texnikalari bilan jihozlash;

Markazni mukammal ta’mirlash, qayta qurish;

ilmiy-tadqiqot faoliyati uchun grantlar shaklida.

28. Markazga aholiga yuqori malakali ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmatlar ko‘rsatish bilan bog‘liq xizmatlarga haq to‘lash uchun ajratiladigan O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘larining aniq miqdori O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi va Markaz tomonidan “Sog‘liqni saqlash” sohasiga har yili budgetdan ajratiladigan mablag‘lar doirasida tegishli yuqori malakali ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam olishga bo‘lgan ehtiyojga qarab aniqlanadi.

29. Markazga budget mablag‘lari O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan har oyda alohida qatorda qismlarga bo‘linmagan holda ajratiladi.

30. Markaz xodimlari soni, ularning ish haqi va moddiy rag‘batlantirish miqdori bajarilayotgan ishlarning murakkabligi, sifati va hajmiga qarab Markaz direktori tomonidan mustaqil ravishda tasdiqlanadi.

31. Markaz tibbiy xizmatlar ko‘rsatishdan va boshqa xizmatlardan tushgan daromadlar doirasida mustaqil ravishda:

Markaz daromadlari va xarajatlari smetasini ishlab chiqadi hamda tasdiqlaydi;

Markaz xodimlarining mehnatiga haq to‘lash va ularni moddiy rag‘batlantirish to‘g‘risidagi nizomni ishlab chiqadi va tasdiqlaydi;

qonun hujjatlarida belgilangan tartibda shtat jadvalini tasdiqlaydi va lavozim maoshining bazaviy miqdoridan kelib chiqib, lavozim maoshlarini, shuningdek miqdori cheklanmaydigan ustama va qo‘srimcha haqlarni belgilaydi.

32. Markaz xo‘jalik faoliyatidan tushgan daromadlarni mustaqil ravishda tasarruf etadi. Markazning o‘z moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijasida olgan foydasi O‘zbekiston Respublikasi Davlat budgetiga tegishli soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar to‘langandan keyin Markaz ixtiyorida qoladi hamda belgilangan tartibda:

Markazning moddiy-texnik bazasini yangilash, modernizatsiyalash va kengaytirish, zamonaviy tibbiyot texnikasini, inventar va asbob-uskunalarini xarid qilish;

Markaz xodimlarini moddiy rag‘batlantirish;

aylanma mablag‘larni to‘ldirish;

Markaz mutaxassislarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

mahsulot va xizmatlarni reklama qilish;

Markaz faoliyatini ta’minalash bilan bog‘liq boshqa maqsadlar uchun foydalilanadi.

Bunda Markaz ushbu bandda ko'rsatilgan xarajatlarning ustuvorlik tartibini, yo'nalishlarini va nisbatini o'zi belgilaydi.

### **7-bob. Hisobga olish va hisobot**

33. Markaz qonun hujjatlarida belgilangan tartibda buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritadi, ularni O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligiga va O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasiga taqdim etadi, hujjatlarning butligi va kelishilgan ro'yxatga muvofiq davlatga saqlash uchun topshirilishi uchun javob beradi.

34. Markazning moliya-xo'jalik faoliyatini nazorat qilish va tekshirish moliya organlari, davlat soliq xizmati organlari, boshqa davlat organlari tomonidan ularning o'z vakolati doirasida, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda auditor tashkilotlar tomonidan ular bilan tuzilgan shartnomalar asosida amalga oshiriladi.

### **8-bob. Yakunlovchi qoida**

35. Markazni qayta tashkil etish va tugatish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazining **Namunaviy ustaviga**  
**1-ILOVA**

### **Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazi konsultativ poliklinikasining bemor o'rnlari fondi va kontingent qabul qilish quvvati**

T/r	Markazning nomi	Bemor o'rnlari fondi	Poliklinikaning bir smenada kontingentlarni qabul qilish quvvati
1.	Akademik V. Vohidov nomidagi Respublika jarrohlik ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazi	370	300
2.	Respublika urologiya ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazi	100	200
3.	Respublika kardiologiya ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazi	200	250
4.	Respublika ko'z mikroxirurgiyasi ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazi	50	150
5.	Respublika terapiya va tibbiy reabilitatsiya ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazi	400	150
6.	Respublika akusherlik va ginekologiya ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazi	236	240
7.	Akademik Y.X. To'raqulov nomidagi Respublika endokrinologiya ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazi	288	250
8.	Respublika dermatovenerologiya va kosmetologiya ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazi	160	70
9.	Respublika pediatriya ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazi	380	200

10.	Respublika ftiziatriya va pulmonologiya ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyat markazi	500	50
11.	Respublika travmatologiya va ortopediya ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyat markazi	240	250
12.	Respublika neyroxirurgiya ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyat markazi	158	100
13.	Respublika onkologiya va tibbiy radiologiya ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyat markazi	370	200

*Oldingi tahrirga qarang.*

Izoh. O'zbekiston Respublikasi Sog'lioni saqlash vazirligi Moliya vazirligi bilan kelishgan holda O'zbekiston Respublikasi Davlat budgetidan har yili ajratiladigan mablag'lar doirasida bemor o'rnlari fondi va kontingent qabul qilish quvvati parametrlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishi mumkin.

Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyat markazi mustaqil ravishda aholiga pulli asosda tibbiy xizmatlar ko'rsatish uchun yo'naltirilgan bemor o'rnlari fondi hamda poliklinikaning bir smenada kontingentlarni qabul qilish quvvati parametrlariga mustaqil ravishda qo'shimcha kiritishi mumkin.

(1-ilova O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-yanvardagi 19-sonli qaroriga asosan izoh bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 16.01.2021-y., 09/21/19/0038-son)

Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyat markazining Namunaviy ustaviga  
2-ILOVA

**Markaz poliklinikasining mavjud bemor o'rnlari fondi va kontingentlarni qabul qilish quvvati hisob-kitobi bo'yicha imtiyozli kontingent foiz nisbati, ularga ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlar uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat budgeti mablag'lari hisobidan haq to'lash**

T/r	Markazning nomi	Quyidagilar uchun foiz miqdori:		
		Rejalashtirilgan tibbiy xizmatlar	bolalar uchun rejalashtirilgan tibbiy xizmatlar	shoshilinch tibbiy xizmatlar
1.	Akademik V. Vohidov nomidagi Respublika jarrohlik ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyat markazi	30	100	8
2.	Respublika urologiya ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyat markazi	30	-	2
3.	Respublika kardiologiya ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyat markazi	30	-	5
4.	Respublika ko'z mikroxirurgiyasi ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyat markazi	30	100	3
5.	Respublika terapiya va tibbiy rehabilitatsiya qilish ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyat markazi	30	100	2

6.	Respublika akusherlik va ginekologiya ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyat markazi	30	100	10
7.	Akademik Y.X. To‘raqulov nomidagi Respublika endokrinologiya ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyat markazi	30	100	15
8.	Respublika dermatovenerologiya va kosmetologiya ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyat markazi	30	100	-
9.	Respublika pediatriya ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyat markazi	-	100	-
10.	Respublika ftiziatriya va pulmonologiya ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyat markazi	100	-	-
11.	Respublika travmatologiya va ortopediya ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyat markazi	50*	100	15
12.	Respublika neyroxirurgiya ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyat markazi	50*	100	15
13.	Respublika onkologiya va tibbiy radiologiya ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyat markazi	100	-	-

\* Budjetdan moliyalashtirish hajmi bosqichma-bosqich ravishda kamaytirilishini hisobga oлган holda.

Izoh. Imtiyozli toifaga kiruvchi kasallarga bepul, shu jumladan shoshilinch tartibda yuqori malakali ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko‘rsatish bilan bog‘liq xizmatlarga haq to‘lash, shuningdek aholiga imtiyozli tariflar bo‘yicha ko‘rsatiladigan ayrim turdagи yuqori texnologik (qimmat turadigan) tibbiy xizmatlar qiymatining bir qismini to‘lash uchun akademik V. Vohidov nomidagi Respublika jarrohlik ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyat markaziga O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan ajratiladigan mablag‘lar ulushi tibbiy xizmatlarni ko‘rsatishdan tushgan rejalashtirilayotgan mablag‘lar umumiyligida miqdorining 50 foizidan kam bo‘lmасligi kerak.

(Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 2017-y.; 16.01.2021-y., 09/21/19/0038-son)